



POLAND



POLAND

KOMPOZITOR FARHOD NAZAROV**Xolmatova Tamara Shoraimovna**

Termiz ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7315192>

Annotatsiya: Yurtimizda bugungi kunda yosh ijodkorlarga, ilmga intilgan barcha yoshdagi avlodga cheksiz imkoniyatlar yaratilgan. Mana shunday ulkan imkoniyatlardan samarali foydalanib, bastakorlik sohasida barakali ijod qilib kelayotgan kompozitor Termizlik yosh ijodkor Farhod Nazarovdir. Ushbu maqolada Farhod Nazarovning hayoti va uning bastakorlik faoliyati xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Farhod Nazarov, ko'rik-tanlov, Fortepiano uchun asarlar, Vokal uchun romanslar, Ovoz uchun qo'shiqlar, Torli cholg'ular uchun kvartet, Simfonik orkestr va fortepiano uchun kontsert.

Farhod Nazarov 1990 yil 3 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati, Termiz shahrida ishchi oilasida tavallud topdi.

F. Nazarovni musiqaga bo'lgan iqtidori tufayli 8 yoshidan 2-sonli Gliyer nomli bolalar musiqa va san'at maktabining fortepiano yo'nalishi bo'yicha Bekxajayeva Zulfiya Islamovna sinfida o'qishga qabul qilindi. Musiqa maktabni muvafaqqiyatli yakunlab, 2006 yil Termiz san'at kolleji maxsus fortepiano yo'nalishi bo'yicha tajribali pedagog, ijrochi Xolmatova Tamara Shoraimovna qo'lida taxsil olib, o'qish jarayonida ko'plab tadbir va tanlovlarda qatnashdi misol uchun «Kelajak ovozi», «Nihol», respublikada o'tkaziladigan tanlovlarda mufaqiyatli ishtirok etdi. Shu qatorda kompozitorlik yo'nalishida ham Xolmatova Tamara Shoraimovnadon qo'shimcha taxsil ola boshladi, va Preludiya asarini birgalikda tugatdi. 2009 yil Termiz san'at kollejinii a'lo baxolar bilan yakunladi.

Farhod Nazarovning musiqaga bo'lgan muxabbati uni O'zbekiston davlat Konservatoriyasiga yetakladi.

U 2010-yil Konservatoriyaning kompozitorlik yo'nalishi bo'yicha O'zbekiston kompozitorlar va bastakorlar uyishmasi a'zosi, O'zbekiston san'at arbobi, professor Mustafo Bafoyev sinfiga o'qishga qabul qilindi.

O'qish jarayonida bir qator festival va ko'rik-tanlovlarda, kontsertlarda faol qatnashib faxrli o'rinlar soxibi bo'ldi. Professor Mustafo Bafoyev F.Nazarovning iqtidori va uning musiqaga bo'lgan qiziqishini ya'nada kuchaytirdi shu bilan birga kamer cholg'ulari, xor asarlari, fortepiano uchun turkum asarlar, vokal uchun bir qator romanslar va qo'shiqlar yaratishga mufaq bo'ldi



POLAND



POLAND

Farxod Nazarov O'zbekiston Davlat Konservatoriyasini 2014-yilda muvofaqiyatli tamomlab, Termiz san'at kollejining maxsus fortepiano sinfiga pedagog sifatida o'z faoliyatini boshladi. 2015 yilda O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyishmasi a'zosi bo'ldi. 2019 va 2021 yil TerDU musiqiy ta'lim kafedrasida magistr bosqichini tugatdi. O'qish mobaynida TerDU musiqiy ta'lim kafedrasida o'qituvchisi Nailiya Karimova bilan hamkorlikda fortepiano o'qitish metodikasidan o'quv qo'llanma yozishdi. Shu bilan birga qator asarlar muallifiga aylandi. Forteplano uchun prelyudiya, pyesalar, ballada va xokozolar.

F.Nazarov o'zining yozgan asarlari bilan bir qator xalqaro ko'rik tanlovlarda faxrli o'rinlar sovrindori bo'ldi. Farxod Nazarov 2018 yil respublika yosh kompozitorlar festivalida o'zining «Poema» (Girya) torli kvartet uchun yozilgan asari bilan ishtirok etdi. Farhod Nazarov 2019 yil 10 iyun Toshkentda o'tkazilgan I xalqaro yosh kompozitorlar tanlovida o'zining uvertyura-fantaziya xalq cholg'ular orkestri uchun yozilgan asari bilan ishtirok etdi. F. Nazarovning asarlari chet davlatlarda ham muallif tomonidan ijro etib kelinmoqda.

Jumladan: 2015 yil Rossiyaning Moskva shahridagi Gnesina nomli musiqa akademiyasida o'tkazilgan VI xalqaro «Романтизм истоки и горизонты» deb nomlangan xalqaro tanlovda III o'rin sohibi, 2015 yil Sankt-Petrburgda o'tkazilgan «Vivat-talant» nomli xalqaro tanlovda qatnashib faxrli III o'rin sohibi, 2016 yil Chernagoriyada o'tkazilgan yosh kompozitorlar xalqaro tanlovida qatnashib faxrli II o'rin sohibi, 2016 yilda Italiyada o'tkazilgan «Sun of Italy» deb nomlangan xalqaro ko'rik-tanlovda qatnashib faxrli I o'rin egalladi. 2020 yil Sankt-Peterburgda o'tkazilgan xalqaro ijrochi kompozitorlar ko'rik tanlovda ishtirok etib faxrli II-o'rinni egallab laureyat bo'ldi.

F.Nazarov ijodi davomida simfonik orkestr uchun uvertyura, simfonik orkestr va fortepiano uchun kontsert, torli kvartet uchun poema «Girya», jo'rli va jo'rsiz xor uchun asarlar, vokal uchun romanslar va qo'shiqlar turkumi, fortepiano uchun qator asarlarni yaratdi. 25-29 noyabr 2021 yil Qozoqistonda o'tkazilgan xalqaro «New music generation» deb nomlangan tanlovda ishtirok etdi 35 ta yirik davlatlar va 285 partituralar ichidan faxrli 3 o'rinni egalladi.

Asarlar ro'yxati:

Fortepiano uchun asarlari

1. Tokkata
2. Pyesa (DeSCH)
3. Prellyudiya «Bag'ishlov»
4. Prellyudiya «Sog'inch»
5. Prellyudiya «Sa'do»



POLAND

CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



POLAND

6. Prelyudiya «Xonish»
7. Ballada
8. Pyesa «Girya»
9. Fantaziya «Baqtriya»
10. Pyesa «Amu daryo»
Vokal uchun romanslar
11. «Где найду в мире друга» A. Fitrat g'azali
12. «Что я могу сказать о ней» A. Fitrat g'azali
13. «Bu hayot» So'zi M.Yaxyo
Ovoz uchun qo'shiqlar
14. «Men o'tgan umurga» Zulfiya she'ri
15. «Otajon» So'zi internet sahifasidan
16. «Prezident ishongan maktabimiz – bu!» F.Abduraimov So'zi
Xor uchun asarlari
17. Akapella «Душа ночами плачет» A. Fitrat g'azali
18. Akapella «Yigit ko'zga yosh olmasin» So'zi M.Yaxyo
19. Jo'rli xor uchun «Ona vatanim» So'zi M.Yaxyo
Torli cholg'ular uchun kvartet
20. Torli cholg'ular uchun kvartet
Simfonik orkestr va fortepiano uchun kontsert
21. Simfonik orkestr va fortepiano uchun kontsert
22. Simfonik orkestr uchun uvertyura fantaziya